



## Ayollar huquqlarining Konstitutsiyadagi o‘rni

**Matqurbanova Nargiza Davronbekovna**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya

universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda ayollar huquqlarining dolzarb masalaga aylanib borayotganligi, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi ahamiyati haqida, hamda ayollar huquqlarining konstitutsiyaviy huquq darajasiga ko‘tarish va uning afzalliklari haqidagi masalalarga to‘xtalib o‘tamiz.

**Kalit so‘zlar:** ayollar huquqlari, konstitutsiya, normalar, konvensiyalar, ratifikatsiya, gender tengligi, davlat, siyosat

**Abstract:** In this article we can read about the issues related to women rights, the increasing importance of women attendance in social, economic and political aspects of life. In addition, the matter of enshrining women's rights at the constitutional level and the advantages of such an approach will also be analyzed.

**Keywords:** women rights, constitution, norms, conventions, ratification, gender equality, state, politics

Avvalo konstitutsiyaning vujudga kelish sabablariga to‘xtaladigan bo‘lsak, biroz muddat orqaga qaytib, tarixga nazar solishimizga to‘g‘ri keladi. Chunki konstitutsiya inson huquqlarini eng oliy darajaga chiqarish, ularni himoya qilish va ijtimoiy hayotda ularni



targʻib qilish uchun yaratilgan. Hozirgi kunda ham konstitutsiya qonun hujjatlari iyerarxiyasida eng yuqorida turadi, oliy yuridik kuchga ega va butun mamlakat hududida uning har normasi soʻzsiz tan olinadi. Va bu shuni anglatadiki, konstitutsiyaviy huquq inson huquqlarining eng oliysi hamda ajralmasi hisoblanadi. Shu sababdan har bir konstitutsiyada imkon boricha kengroq koʻlamdagi huquqlarni qamrab olishga harakat qilinadi. Shu oʻrinda aytish joizki, huquqlar himoyasi zamon bilan hamnafas boʻlishi darkor. Bundan tashqari, hozirgi kunda kuzatyapmizki shiddat bilan rivojlanayotgan, texnologiyalar asri boʻlgan davrda ayollar huquqlari hanuz himoyaga muhtoj. Ayniqsa, bizning jamiyatda bunday holatlarga juda koʻp duch kelyapmiz. Mentalitetga bogʻlanadigan turli xil stereotiplar oʻz shaxsiy hayoti, mustaqilligi, erkinligi boʻlgan, oʻz hayotiga oid qarorlarni toʻlaqonli mustaqil qabul qila olish qobiliyatiga va huquq hamda muomala layoqatiga ega boʻlgan individlarning hayoti atrofida odamlar va hatto yaqinlarining qaroriga binoan quriladi va shu tarzda davom etilishi talab qilinadi. Afsuski jamiyatimizda hali hanuzgacha ayollarga material yoki oʻta shaxsiy mulk sifatida qaralmoqda, ularning shaxsiyati va erki haligacha unut. Achinarlisi shuki, zamon rivoji natijasida xalq orasida ommalashgan ijtimoiy tarmoqlar orqali notoʻgʻri qarashlar singdirilmoqda. Gap shundaki, ayollar erkinligi yoki ularning rivojlanishi, ilm olishiga oid imkoniyatlar yaratilishi haqidagi qarashlar oʻrniga ularning turmush oʻrtoq, kelin, ona sifatidagi haqiqatga va aqlga toʻgʻri kelmaydigan stereotiplarni koʻtarishyapti. Ilm olishga ishtiyoqi, layoqati boʻlgan qizlarning majburan uyda olib qolinishi va oʻz xohishiga qarshi erta turmush qurishga majburlanishi bularning bari inson huquqlari tamoyillariga ziddir. Hozirgi kunda dunyo boʻylab nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan turli xalqaro darajadagi konvensiyalar va boshqa huquqiy hujjatlar qabul qilingan, deyarli barcha mamalakatlar asosiy qonuni – konstitutsiyasida ayollar huquqlariga tegishli normalar mavjud. Lekin qonunlar qabul qilingani, normalar qoʻshilgani yoki ularga oʻzgartirish kiritilgani, konvensiya, xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilingani bilan ularning hech biriga amal qilinmasa, hanuz ayollar huquqlari poymol qilinsa, ularga



yetarlicha e'tibor berilmasa, bundan nima naf? Davlatlarning yuridik hujjatlaridan misollar keltiradigan bo'lsak, Koreya Respublikasining Konstitutsiyasining 32-moddasi 4-bandida ayollar huquqlari borasida shunday deyiladi: "Special protection shall be accorded to working women, and they shall not be subjected to unjust discrimination in terms of employment, wages and working conditions." Ya'ni, "Mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan ayollar maxsus himoya bilan ta'minlanadi va ularning bandlik, ish haqi hamda mehnat sharoitlariga oid masalalarda nohaq kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi." Shuningdek, Koreya Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasi 3-bandida "The State shall endeavor to promote the welfare and rights of women." Ya'ni, "Davlat ayollarning huquqlari va farovonligini ta'minlash hamda ularni ilgari surilishini kafolatlaydi." Bundan tashqari, Hindiston Konstitutsiyasining 38-moddasi d qismida "there is equal pay for equal work for both men and women", ya'ni "erkaklar va ayollar bir xil mehnat uchun bir xil ish haqi olish huquqiga ega bo'lishlari ta'minlanadi.", deyilgan. 248-moddasi 2-qismida esa "Not less than one-third of the total number of seats reserved under clause (1) shall be reserved for women belonging to the Scheduled Castes or, as the case may be, the Scheduled Tribes" - "1-band asosida ajratilgan umumiy o'rinlarning kamida uchdan bir qismi, mos ravishda, belgilangan kastalar yoki belgilangan qabilalarga mansub ayollar uchun alohida ajratilishi lozim", deyilgan. Janubiy Afrika Konstitutsiyasining Milliy Majlis bobiga tegishli bo'lgan 46-moddaning 1-qismida ayollarning davlat siyosatidagi o'рни hamda ularning siyosiy huquqlarinig o'ziga xos tarzda talqin etilgani alohida e'tiborga molikdir: "The National Assembly consists of no fewer than 350 and no more than 400 women and men elected as members in terms of an electoral system", ya'ni, "Milliy Majlis saylov tizimi asosida saylanadigan kamida 350 nafardan kam bo'lmagan va 400 nafardan ortiq bo'lmagan ayollar va erkaklardan iborat bo'ladi." Ko'pchilik davlatlarda xalqaro huquq normalariga muvofiq tarzda ayol va erkaklar teng huquqlarga ega ekanligi va ularning hech qanday kamchilik yoki kamsitishlarsiz himoya qilinishi haqida so'z boradi.



Masalan, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 1-qism 19-moddasining 3-bandida “Men and women shall enjoy equal rights and freedoms and equal opportunities to exercise them”, ya’ni “Erkaklar va ayollar teng huquq va erkinliklardan hamda ularni amalga oshirish yo‘lida teng imkoniyatlardan foydalanadilar.” Shu bilan birgalikda, 6 qism, 30 moddadan iborat bo‘lgan, 1979-yil, 18-dekabrda qabul qilingan “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini yo‘q qilish to‘g‘risidagi konvensiya” (CEDAW) da ayollar huquqlariga oid hayotning har jabhasiga tegishli normalar keltirilgan. Lekin afsuski, yuqorida aytilganidek konvensiyalar, hatto xalqaro darajadagi hujjatlar ham ayollar huquqlariga to‘laonli kafolat bo‘la olmaydi, ya’ni ular amalda himoya qilinishi va targ‘ib etilishi lozim.

Umuman olganda, global tarzda inson huquqlarining himoyasi yonida ayollar huquqlarining ajralib chiqqan holda bir qatorda turishi ko‘pchilikda savol uyg‘otmoqda. Hatto ba’zilar gender tengligi orqali ayollarga berilayotgan ustunliklar va imkoniyatlar erkaklar huquqlariga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani haqidagi fikrlarini ilgari surmoqdalar. Ayollar huquqlarining alohida e’tiborga sazovorligi yoki muhtojligining asosiy sababi asrlar davomida kamsitib kelinayotgan yoki yetarli darajada qadrlanmaganligidir. Ayollarning qadri va poymol etilgan va etilayotgan huquqlarini erkaklarniki bilan tenglashtirish uchungina islohotlar amalga oshirilmoqda. Huquqlar targ‘ibotini ularni yozma tarzda rasmiylashtirish bilan bir yo‘sinda olib borish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Masalan, ayollar huquqlarini konstitutsiyaviy huquq darajasiga ko‘tarish ularga bo‘lgan e’tiborni yanada hamda ularning huquqiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://www.refworld.org/docid/3ae6b4dd14.html>
2. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-elimination-all-forms-discrimination-against-women>
3. <http://www.constitution.ru/en/10003000-01.htm>
4. [https://japan.kantei.go.jp/constitution\\_and\\_government\\_of\\_japan/constitution\\_e.html](https://japan.kantei.go.jp/constitution_and_government_of_japan/constitution_e.html)
5. Women, Race & Class First Vintage Books Edition, February 1983 Copyright © 1981 by Angela Y. Davis